

YURTIMIZDA YOSH AVLODGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR

Mòsinjonova Zeboxon Oybek qizi

Andijon davlat universiteti Pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim, maktabgacha ta'lim va tillarni o'qitish metodikasi fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 104-guruh talabasi

Annotatsiya. Hozirgi globallashuv jarayonda yoshlarning bilim olishlari, har tomonlama yetuk shaxs, yetuk kadr bòlib, vatanimizning rivojlanishiga òz hissalarini qòshishlari uchun yurtimizda yangidan yangi imkoniyatlar, sharoitlar yaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan yoshlarning bòsh vaqtlarini mazmunli òtkazishni va turli xil diniy ekstrimiz, terrorizm yòllarga kirib ketmasligini oldini olish maqsadida barcha oliy òquv yurtlarida turli xil kòrik tanlovlar joriy qilinmoqda. Ushbu maqolamda biz yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va yaratilayotgan imkoniyatlar haqida sòz yuritdim.

Kalit so'zlar: yetuk shaxs, yetuk kadr, ekstrimiz, terrorizm, baxt, quvonch, iqtidorli, qobilyatli, ra'gbatlantirish, intellektual, prezident maktablari, chet el hamkorligida, bakalavriyat, moddiy ra'gbatlantirish, prezident stipendiyasi.

Mustaqillik yillarida ezgu maqsadlar bilan yashash va mehnat qilish uchun barcha sharoitlar vujudga keldi. Har yili kundan kunga yoshlarimizning o'qib bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Yoshlarimizga qaratilayotgan e'tibor kuchaymoqda, rivojlanmoqda. Òsib kelayotgan yosh avlodning bilimi va ularning kelajakda qanday kasb – hunar egallashlariga qarab, mamlakatimiz kelajagini tasavvur qilish mumkin. Yoshlar farovon hayotimiz mezonidir. Biz bilamizki, Òzbekiston zamini yoshlar bilan gòzal va tòla tòkisdir. Yurtimizdagi barcha oilalarda chaqaloqning dunyoga kelishi hammaga baxt, quvonch, hursandchilik olib keladi. Dunyoga kelgan farzand ògil yoki qiz buning ahamiyati yòq. Ammo buning aksi bòlishi, ya'ni ayrim oilalar qiz farzandni hohlamasliklari va bu kòplab oilalarning janjallashishiga olib kelishi mumkin. Hayotimiz davomida farzandga muhtoj, farzandli bòlishni hohlab kecha-yu kunduz yaratgandan farzand tilab duo qilayotgan oilalar borligiga guvohmiz.

Farzand bizga berilgan eng buyuk ne'mat va bizning davomchilarimiz ekanligini unutmashimiz lozim. Bolalarning tògri ta'lim – tarbiya olishlari ota – onalarning, pedagoglarning vazifasidir. Hozirgi globallashuv davrida yoshlarda media savodxonlikni oshirishda axborot vositalariga bòlgan qiziqish kundan – kunga ortib bormoqda. Bunda televizor, telefon, internet, internet – televideniya, internet – radio kabi kòplab axborot tarmoqlari muhim òrin tutmoqda. Ammo internet tarmoqlaridan tògri va oqilona foydalanish zarur. Yoshlarning internet tarmoqlari orqali turli xil diniy ekstrimiz, terrorizm ruhdagi saytlarga, òyinlarga òzi bilmagan holda kirib ketishining oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarimizga keng imkoniyatlar yaratilib, ta'lim sohasiga yangiliklar olib kirilmoqda. Iqtidorli, qobilyatli yoshlarni aniqlash, qòllab quvvatlash, ra'gbatlantirish, ma'naviy va boy intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash maqsadida Prezident maktablari ochildi. 14 ta Prezident maktabi Òzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 20 – fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora – tadbirlari tògrisida” gi PQ – 4199 – qarori asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tashkil qilindi. 2019 – yilda Prezident maktab – internatlari Toshkent, Xiva, Nukus va Namanganda ochildi. Bundan tashqari yoshlarning qobilyatlariga qarab kòplab sport turlari, sport musobaqalari tashkil qilinmoqda. Barcha òquv yurtlaridagi òquvchilarning bòsh vaqtlarini mazmunli òtkazish uchun kòrik tanlovlar joriy qilindi. Bulardan òquvchilarning zehni kuchaytirish, taffakur doirasini kengaytirish maqsadida “Zukko kitobxon”, “Yosh kitobxon” kòrik tanlovi joriy qilindi. Tanlovda yoshlarga berilyotgan kitoblar ròyxati bolaning yoshiga tòla mos keladigan va berilyotgan asarlar bolaning fikrlash, òylash qobilyatini shakllantiradigan darajada berilgan.



Ta'lim – tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan kòzlangan maqsad barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Yurtimizda boshqa davlatlar singari ta'lim tizimiga alohida e'tibor berilmoqda. Bunga misol qilib aytadigan bòlsak, davlatimizda chet el xamkorligida yangidan yangi oliy òquv yurtlari ochilmoqda. Malakasi yuqori, òz ishini mukammal tarzda biladigan òqituvchilar, pedagoglar dars bermoqda. Vundan maqsad yurtimizda chet el tajribasi asosida yoshlarga bilim berish, ta'lim tizimiga yangiliklar olib kirishdan iboratdir. Hozirgi globallashuv davrida yoshlarimizning bilim salohiyatini oshirish, yoshlardagi yashirin iste'dodni yuzga chiqarish, iqtidorli yoshlarni qòllab quvvatlash maqsadida hamda yangi hayotga qadam qòyib yuqori chòqqilarni maqsad qilgan yoshlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Oliy òquv yurtlarida nomdor va rektor stipendiyalarning joriy qilingani, yil talabasi tanlovlarining har yili òtkazilishini aytishimiz mumkin. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida" 2008-yil 13 oktyabrdagi [226](#)-son qaroriga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Xususan, Bakalavriat bosqichi talabalar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari hamda ularni tayinlash tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Prezidentning davlat stipendiyalari oliy ta'lim muassasalari (davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari) bakalavriat bosqichi oxirgi kurs talabalariga tayinlanadi va to'lanadi. Prezident stipendiyasi har bir oliy ta'lim muassasasining 1 nafar bitiruvchi kurs talabasiga tayinlanadi. Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug'bek, Imom al-Buxoriy va Islom Karimov nomli davlat stipendiyalari O'zbekistondagi davlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalarining oxirgi ikki kursida o'qiyotgan talabalarga tayinlanadi va to'lanadi. Prezidentning davlat stipendiyalari oliy ta'lim muassasalari (davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari) bakalavriat bosqichi oxirgi kurs talabalariga tayinlanadi va to'lanadi. Prezident stipendiyasi har bir oliy ta'lim muassasasining 1 nafar bitiruvchi kurs talabasiga tayinlanadi. Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug'bek, Imom al-Buxoriy va Islom Karimov nomli davlat stipendiyalari O'zbekistondagi davlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalarining oxirgi ikki kursida o'qiyotgan talabalarga tayinlanadi va to'lanadi.

Yoshlarga berilayotgan har bir imkoniyatlar uchun davlatimiz rahbarining bizga qaratayotgan e'tibori uchun ham biz yoshlar òqib bilim olishimiz, yurtimizning bayrog'ini yuqori chòqqilarga olib chiqib, ta'lim sohasini yanada isloh qilishga òz hissamizni qòshishimiz lozimdir. Inson ezgu ishlar uchun tug'iladi. Ilm olish, mehnat qilish, hunar òrganish, ota – ona, qarindosh – urug' va barcha insonlarga mehribon bòlish, har kuni va har

soniyada ezgulikka intilib yashash asrlar davomida xalqimizga xos bòlib kelgan. Bunday an'analarni munosib davom ettirish bizning farzandlik burchimizdir.

“Kelajakda Òzbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim”, - deydi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov.

Foydalanilgan adabiyotlar ròyxati:

1. X.Ibragimov, SH.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008, 288 bet.
2. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/ O'quv. M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov. O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «Talqin», 2008. - 288 b.
3. “Òzbekiston milliy ensiklopediyasi ” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
4. <https://piima.uz/page/presidential-schools#>
5. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/iqtidorli_talabalarga_-_mahsus_stipendiyalar